



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/4




www.innoworld.net
+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 4
2026

Journal has been listed in different indexings



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:
www.innoworld.net

Uzbekistan-2026

**ISLOM TA'LIMOTIDA TABIATNI ASRASH VA UNING TURIZM
SOHASIGA TA'SIRI****Majidova Mahliyo Shomilovna**

QarDU Iqtisodiyot fakulteti

Turizm yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Email: mahliyomajidova45@gmail.com

Annotatsiya: Ekologik barqarorlik zamonaviy turizm sohasi rivojining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, u tabiiy muhitning yaxshi saqlanishi, turistlar oqimi oshishi va turizm infratuzilmasining yanada yuksak samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan diniy qadriyatlar asosida shakllangan ekologik ong turizm sohasida barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sohaning ekoturizm va ziyorat turizmi kabi yo'nalishlari aynan ekologik tozalikka va muhitning saqlanishiga tayanadi. Insoniyatning tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabati jamiyatda ekologik muvozanat muhofazasini mustahkamlash bilan birga turizm resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi. Diniy-axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi esa ekologik muammolarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, ekologik madaniyatni diniy qadriyatlarimiz asosida rivojlantirish, turizmning istiqbolli va raqobatbardosh soha sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ekologik ong va mas'uliyat, texnologik yondashuv, texnogen bosim, islom dini ta'limoti, xalifa, tabiiy resurslar, turizm konteksti,

Kirish: Islom dini ta'limoti inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlovchi muhim ma'naviy asoslardan biri sifatida ko'rsatiladi. Uning atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni yaxshi saqlash tamoyillari bunda ustuvor o'rin egallaydi. Tabiat Alloh tomonidan insoniyatga berilgan ne'mat va omonat sifatida talqin qilinib, inson zimmasiga uni muhofaza qilish mas'uliyati yuklatilgandir. Isrofgarchilikni cheklash, poklikka rioya etish va jonli mavjudotlarga shafqat bilan munosabatda bo'lish ekologik madaniyatning muhim tarkibiy qismlarini tashkil qiladi. Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyoti insoniyat oldiga ilgari kuzatilmagan murakkab ekologik muammolarni qo'ymoqda. Chunki hozirgi davrdagi texnogen bosimning ortib borishi, resurslardan haddan tashqari ko'p foydalanish va ekologik muvozanatning izdan chiqib borishi global darajada barqaror rivojlanishga anchagina jiddiy tahdid solmoqda. Shu nuqtai nazardan, ekologik muammolarni hal etishda faqat texnologik yondashuv yetarli emasligi tobora ayon bo'lmoqda. Inson ongini, uning tabiatga nisbatan munosabatini o'zgartirish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur jarayonda diniy-ma'naviy qadriyatlar alohida o'rin tutadi. Har bir millat o'z diniy etiqodiga ega bo'lib, bu dinlar ichida eng yaxshisi va avzali sifatida Islom dini yuksak mavqega ega. Islom ta'limoti inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan mukammal axloqiy tizimni taklif etadi. Unda tabiat ilohiy tartibning ajralmas qismi sifatida talqin qilinib, unga nisbatan ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish zarurati ta'kidlanadi. Tabiiy muhitni asrash

nafaqat ijtimoiy burch, balki ma'naviy majburiyat sifatida qaraladi. Bundan tashqari, bu dinga oid bo'lgan manbalar juda ko'p va ularga qiziqish bildiradiganlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Bugungi kunda turizm sohasi ham ekologik omillarga bevosita bog'liq holda rivojlanmoqda. Tabiiy landshaftlarning saqlanishi, ekologik tozalik darajasi va muhit barqarorligi turizmning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim mezonlardan hisoblanadi. Shu bois ekologik madaniyatni diniy qadriyatlar asosida shakllantirish turizmni barqaror rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Dinimizda mehmondo'stlik, begona shaharlardan kelgan musofir kishilarga yordam ko'rsatish va atrof-muhitga ya'ni tabiatga yaxshi munosabatda bo'lish kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Bular esa o'zaro uyg'unlashib hududimizdagi turizm sohasini rivojlantirishga katta hissa qo'shib borishi mumkin. Shuningdek dinimizda, har bir mo'min-musulmon kishisi qilishi kerak bo'lgan ishlardan biri sifatida, o'z yurti istiqboli va iqtisodi uchun hissa qo'shishi kerakligi ko'rsatiladi. Biz yurtimiz iqtisodiyotini barqaror va yanada o'sib boradigan bo'lishi uchun, turizm sohasiga etiborni kuchaytirishimiz kerak. Bu soha nafaqat yurtimiz barqarorligi uchun, balki millatlar o'rtasidagi do'stlik hamda o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish uchun ham juda zarur sohalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism: Islom ta'limotida tabiatga nisbatan munosabat chuqur falsafiy va axloqiy asosga ega. Dinimizda inson yer yuziga "xalifa" sifatida yuborilgani qayd etilgan bo'lib, bu maqom unga mutlaq hukmronlik qilishi uchungina emas, balki yer yuzidagi o'zaro muvozanatni saqlashi va butun borliqdagi jonzotlarga va o'simliklarga yaxshi munosabatda bo'lishi ya'ni tabiatni muhofaza qilishi uchun yuklangan vazifa hisoblanadi. Dunyoda resurslar cheksiz emasligi, ular qachonlardir nihoyasiga yetishi, ularni me'yorida va adolatli taqsimlash zarurligi Islomiy qarashlarning markazida turadi. Ekologik muvozanatni buzish jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi, shuningdek chetdan kelayotgan turistlar oqimini ham kamaytiradi. Ekologik muhofaza diniy-axloqiy me'yorlar bilan birgalikda mustahkamlangan taqdirda o'z samarasini va yaxshi natijasini ko'rsatadi. Ayniqsa, ziyorat turizmiga tashrif buyiruvchi ba'zi turistlar etiborini tortuvchi eng asosiy omil bu ziyoratgohlarning yaxshi ko'rinishda bo'lishi, ziyorat joylarida ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilganligi, eng asosiysi esa buyuk ajdodlarimizga ko'rsatgan ehtirom va ular uchun bunyod ettirgan inshootlarimiz hisoblanadi. Agar etibor berilsa, ko'plab ziyorat joylari chekka hududlarda va qishloqlarda joylashgan bo'ladi. Agarda biz bunday ziyorat hududlarimizni yanada obod qiadigan bo'lsak, ham keladigan mehmonlarimiz uchun, ham shu hududlarda istiqomat qiluvchi aholi farovonligi uchun yaxshigina hissa qo'shgan bo'lamiz. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiatda yuz berayotgan muammolarning asosiy sababi bu inson faoliyatining nazoratsiz kengayib borishidir. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'yicha har yili milliardlab tonna chiqindilar hosil bo'lib, bu omil atrof-muhitning degradatsiyasiga olib kelmoqda. Shu jihatdan qaraganda, ekologik muammolarni kamaytirishda insonning ichki dunyosini ijobiy qarashlar orqali shakllantirish

muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tabiatdan o'z ehtiyojlari yo'lida bermalol foydalanishi mumkin, ammo unga zarar yetkazmasligi, tahdid solmasligi kerakligi ham muqaddas kitoblarimizda aytib o'tilgan. Bu shuni anglatadiki, turizmni kengaytirish orqali iqtisodiy foyda olish bilan birga, ekologik zarar yetkazmaslik kerak. Bilamizki yurtimiz hududi ham diniy turizm rivojida yuqori pog'onalarda turadi. Chunki O'zbekiston – islom sivilizatsiyasi markazlaridan biri va bu hududdan ko'plab mashxur allomalar, ilm-fanning yetuk namoyondalari yetishib chiqqan. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Ahmat Yassaviy va yana juda ko'p ajdodlarimiz bunga misol bo'ladi. Ziyorat turizmining asosiy shaharlari sifatida shu uch hududni - Samarqand, Buxoro va Xorazm shaharlarini alohida ko'rsatib o'tish joiz. Bugun ziyorat turizmga alohida e'tibor qaratilmoqda, sababi chetdan kelgan turistlarning 60-70% gacha qismi asosan yurtimizga ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchilar hisoblanadi. Ziyorat turizmi – islomiy turizmning asosiy tayanchi hisoblanib, u musulmonlar uchun muhim tarixiy va ruxiy ahamiyatga ega. O'zbekiston hududiga chetdan ziyorat maqsadida keluvchilarning ko'pchiligi ham, Indoneziya, Malayziya, Turkiya kabi musulmon davlatlardan tashrif buyuruvchilar hisoblanadi. Shuning uchun yurtimizda ziyorat turizmi katta salohiyatga ega yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Yuqorida takidlanganidek, ekologik ongni shakllantirishda diniy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir, chunki ekologik mas'uliyat imonning bir qismi hisoblanadi. Islomiy turizm – bu shariat qoidalariga mos holda tashkil etilgan sayohat hisoblanib, u nafaqat diniy ibodatlarini, balki madaniy va tabiiy dam olishni ham o'z ichiga oladi. Bugunki kunda islomiy turizm yo'nalishida bir qancha xizmat ko'rsatish muassalari, jumladan halal mehmonxonalar, halal ovqatlantirish joylari, halal oziq-ovqat tizimi, shariatga mos xizmat ko'rsatuvchi obektlar faoliyati keng yo'lga qo'yilmoqda. Turistlar sonini oshirish uchun sohani har jihatdan qo'llab-quvvatlash muhim, chunki har qaysi millatning o'ziga xos bo'lgan madaniyati va diniy qarashlari mavjud. Mutaxassislar ham o'z navbatida shu jihatlarga katta e'tibor qaratgan holatda sohani rivojlantirishlari kerak. Musulmonlar soni ko'pligi ular uchun sayohat qilish imkoniyatini ham kengaytiradi va bu omil islomiy tamoyillarga asoslangan xizmatlarni talab qiladi. Shu tufayli hozirda musulmon bo'lmagan davlatlar ham, halal turizmni rivojlantirmoqda. Bunday davlatlarga misol qilib Yaponiya, Korea, Avstraliya va boshqa hududlarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu hududlardagi turizm infratuzilmasi har tomonlama moslashtirib borilmoqda. Bu esa islomiy turizmning bugunki kunda global miqyosda rivojlanib borayorganligini anglatadi.

Turizm sohasi ekologik tizim bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning rivojlanishiga tabiiy muhit bevosita ta'sir qiladi. Ekologik toza hududlar turistlar uchun jozibador ko'rinishdagi, turistlarni o'ziga jalb qiluvchi hududlar bo'lsa, ifloslangan hududlar turistlar uchun xaroba hududlar hisoblanib, bunday hududlarga sayohat talabi pasayib ketadi. Shu bois ekologik barqarorlik turizm rivojining asosiy shartlaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuvlar turizm sohasini

iqtisodiy foyda manbai bo'lishi bilan bir qatorda ekologik muvozanatni saqlovchi mexanizmga aylantiradi. Shu kunlarda diniy turizm ekologik innovatsiyalar orqali yanada keng rivojlantirilmoqda. Bular tabiatni asrashga qaratilgan tashabbuslar va ekologik toza sayohatlarni tashkil etishda o'z aksini topadi. Hozirgi kunda Islomiy sayohatni amalga oshirish va onlayn bronlash tizimlari yo'lga qo'yilgan. Shuningdek turistlar uchun alohida ibodat joylari, halal restoranlar va genderga mos bo'lgan xizmatlar taklifi yo'lga qo'yilmoqda. Islomiy turizmni rivojlantirishda ayrim muammolar ham mavjud hisoblanib, bular standartlarning aniq emasligi, halal sertifikatlash tizimidagi farqlar, turistlarni jalb qilish uchun marketing sohasiga alohida e'tibor qaratilmayotgani va ayrim biznes subyektlarining turizm sohasidagi bu tizimga qiziqishi past ekanligi kabilardir. Juda ko'p kompaniyalar halal turizmni foydali yo'nalish deb hisoblamaydi va asosan faqat Haj va Umra ziyoratlari bilangina cheklanib qoladi.

Ziyorat turizmi kontekstida ekologik madaniyat yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Muqaddas maskanlar nafaqat diniy, balki tabiiy-estetik qadriyat sifatida ham e'tirof etiladi. Ushbu hududlarning tozaligi va ekologik holati ziyoratchilarning ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois diniy qadriyatlar asosida shakllangan ekologik madaniyat ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ekologik muammolarni hal etishda kompleks yondashuv juda ham zarur. Texnologik innovatsiyalar bilan bir qatorda, insonning ma'naviy dunyosini boyitib borish, unda tabiatga nisbatan mas'uliyat hissini shakllantirish muhimdir. Bu kabi masalalarga yechimni ajdodlarimiz bizga meros qilib qoldirib ketgan ilmiy va manaviy manbalar orqali topishimiz ham mumkin. Islom ta'limoti ana shunday yondashuvni taklif etuvchi mukammal tizim sifatida namoyon bo'la oladi desak adashmagan bo'lamiz. Islomiy turizm nafaqat tabiatni asrashga, balki madaniy me'rosni ham asrashga xizmat qiladi, chunki bu tushunchalar uning asosi hisoblanadi. Shu sababli ham bu soha tarixiy obidalarni saqlash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish, diniy madaniyatni targ'ib qilishdagi tayanch bo'la oladi. Masalan hozirgi kunda Malayziya davlati islomiy turizm orqali juda ko'p turistlarni jalb qilmoqda, o'z qadriyatlarini saqlab qolmoqda va har jihatdan iqtisodiy foydani qo'lga kiritmoqda.

Xulosa: Ekologik madaniyatning rivojlanishi zamonaviy turizmning barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tabiiy muhitning yaxshi saqlanishi turizm infratuzilmasining samaradorligini yanada oshiradi va hududlarning jozibadorligini kuchaytiradi. Diniy qadriyatlar asosida shakllangan ekologik ong esa ushbu jarayonning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, ekologik va iqtisodiy manfaatlar uyg'unligi ta'minlanadi hamda barqaror rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratiladi. Aytib o'tilganidek bugunga kelib, islomiy turizm tushunchasi alohida bir yo'nalish sifatida talqin etilmoqda, chunki sohada bu jihatdan turistlar soni ildamlab bormoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, diniy turizm va ekologik turizm bir-biriga uzviy bog'liq, ular birgalikda turizmni yanada boyitadi hamda iqtisodiy foydani oshiradi va turistlarning madaniy, manaviy, ijtimoiy jihatdan ehtiyojlarini

qondiradi. Islom ta'limoti tabiatni asrashni insonning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilaydi. Bu g'oya turizm sohasida islomiy turizm orqali amalga oshiriladi. Islomiy turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ekologik muvozanatni saqlash, madaniy merosni himoya qilish va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy sharoitda halal turizm global miqyosda tez rivojlanayotgan bo'lib, kelajakda barqaror turizm modelining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullah, A. A., Hassan, M. K., & Othman, A. K. (2020). *Islamic Tourism: The Characteristics, Concept and Principles*.
https://www.researchgate.net/publication/342985649_Islamic_Tourism_The_Characteristics_Concept_and_Principles
2. Oktadiana, H., Pearce, P. L., & Chon, K. (2026). *Halal and Islamic Tourism: Exploring the Landscape*. Channel View Publications.
<https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.21832/9781845419561/html>
3. Shahmi, M. A., (2025). *Deconstructing Anthropocentric Sustainability in Halal Tourism Ecosystem*.
<https://ejournal.uinmybatusangkar.ac.id/ojs/index.php/jurei/article/view/16167>
4. O'zbekiston rasmiy turizm portali <https://uzbekistan.travel/en/o/pilgrimage-tourism/>

